

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan

№ 12 (66293)
2001 yil 23 mart, juma

Sotuvda erkin narhda

Типограф №3

KELDING NAVRO'ZIM

Ko'ngillarni yayratib,
Bulbullarni sayratib.
Gullar bo'yin taratib,
Kelding Navro'z — kutganim,
Yo'liga ko'z tutganim.

Sog'ingandim bo'yingni,
Soylardagi kuyingni.
Sayilingni, to'yingni,
Kelding Navro'z — kutganim,
Yo'liga ko'z tutganim.

Sen kelsang dil yashnaydi,
Noming tildan tushmaydi.
Yurtim gulga o'xshaydi,
Kelding Navro'z — kutganim,
Yo'liga ko'z tutganim.

Osmonlarda kamalak,
Qozonlarda sumalak.
Yuraklarda xush tilak,
Kelding Navro'z — kutganim,
Yo'liga ko'z tutganim.



SUMALAK.

Toshkent tumanidagi 15-maktabning 4-„A“ sinf o'quvchisi
Manzura TOJIBOYEVA chizgan rasm.

HASHAR — BIZGA YARASHAR

Yurtimizga bahor fasli kirib
kelishi bilan obodonlashtirish
ishlari avj olib ketadi. Hamma
maktablarda bo'lgani, kabi biz
ham har haftaning yakunida
shanbaliklar uyushtiryapmiz.

Sinfimizga ajratilgan
maydonchani supurib-sidirib,
toshlardan tozaladik. Bir tekisda
chopib, gul ko'chatlari o'tqazdik.
Kunlar ilishi bilan ekan
ko'chatlarimiz yaproq yoza
boshladi. Ishlarimizdan mamnun
bo'lgan direktor opamiz
barchamizga minnatdorchilik
bildirib, nomma-nom chaqirib
maqtadilar. Dangasalik qilib,
shanbalikka kelmagan
sinfodoshlarimizning esa boshlari
egilib qoldi. Kelasi
shanbaligimizda barcha
sinfodoshlarim «Hashar — bizga
yarashar», deya faol
qatnashadilar, degan niyatdaman.

Mahmudjon AZIMOV,
169-maktabning
4-„G“ sinf o'quvchisi.

Otalar yozadi

to'g'rilash uchun esa juda
ko'plab mevali daraxtlar ekishimiz,
bog'lar barpo etishimiz lozim. Va bu
xayrli ishlarda barchamizning
munosib hissamiz bo'lishini
istardim.

Ayniqsa, siz o'quvchi-
yoshlarning faol
ishtirokingiz muhim
ahamiyat kasb etadi.
Ko'chat ekish barobarida
sizlarda bog'bonlik kasbiga
hurmat, qiziqish ortadi. Bir
necha yil o'tgach,
mehnatigiz mahsulini
ko'rib, ko'nglingiz
quvonadi. Har biringiz erta
bahorda bir tupdan mevali
daraxt ko'chati
o'tkazishdagina emas, uni
nobud qilmay, mo'l hosil
beradigan daraxt qilib
parvarishlashdadir. Shu
bois ham qishlog'ingiz,
mahallangizdagi kekxa,

tajribali bog'bonlardan,
bog'dorchilik bo'yicha
mutaxassislardan maslahatlar
olsangiz, maqsadga muvofiq
bo'lardi.

AZIZ O'QUVCHILAR!
OBODONLASHTIRISH VA
KO'KALAMZORLASHTIRISH
OYLIGIDA FAOL
QATNASHIB, YURTIMIZNI
BOG'U ROG'LARGA
AYLANTIRAYLIK!

A. KO'CHIYEV,
Sirdaryo viloyati,
Sirdaryo tumani.

paxta yakkahokimligi avj oldi.
Oqibatda ota-bobolarimiz
barpo qilgan

KO'CHAT EKIB, BOG' YARAT!

"YASHIL SOQQCHILAR" GURUHI

Aziz o'quvchilar! Ko'klam kunlari maktabingiz
bog'iga o'tkazgan ko'chatlaringizni
parvarishlash, qo'riqlash maqsadida «Yashil
soqqchilar» markazlarini tuzing. Uning tarkibida
5-6 nafar o'quvchilardan iborat bir necha
guruhlar bo'lsin. Har bir guruhga ma'lum bir
hudud ajratib beriladi. O'quvchilarning o'zlari
tomonidan guruhlariga rahbar saylanadi.

«Yashil soqqchilar» guruhi a'zolarining vazifa
va burchlari quyidagilardan iborat:

1. Daraxt ko'chatlari, butalar, gullar ekadilar
va ularni parvarish qiladilar. Nihollarni
sindiruvchilarga qarshi kurashadilar va
tushuntirish ishlari olib boradilar.

2. «Yashil soqqchilar» a'zolari yashash joylari
tabiatini, ko'chatzor va daraxtzorlarini, ko'l va
hovuzlarini, foydali hayvonlar va qushlarni
muhofaza qiladilar.

qirqilib, o'rnini ishlab chiqarish
korxonalari egalladi. Juda ko'plab
mevalar, jumladan, o'riklarning
sarxil navlari yo'qolib ketdi.
Vaholanki, o'sha sarxil o'rik navlari
tarkibida inson salomatligi uchun
nihoyatda zarur bo'lgan ko'plab
mikroelementlar mavjud edi. YOg' va
turli darmon dorilarga boy bo'lgan
yong'oqning shifobaxshligini
aytmaysizmi? Afsuski, ular ham faqat
tog'li hududlarda va ayrim
xonadonlardagina saqlanib qolgan,
xolos.

Hozirgi kunda ilgari yo'l qo'yilgan
xatolarimiz uchun bizni ona
tabiatimiz jazolayotgandek. Xatolarni

Bolaligim ikkinchi jahon urushi
endigina tugagan, oziq-ovqatlar, non
taqchil bo'lgan yillarga to'g'ri kelgan.
Yodimda bor, biz yashaydigan
mahallada mevali daraxtlar
juda ko'p
bo'lardi.
Y o z

kirmasdan oq
pishadigan tutdan tortib, kech
kuzda pishib yetiladigan
shaftoli va olmalargacha
dasturxonimizdan arimasdi. Yoz
oylarida tayyorlagan shaftoli,
olma qoqilar, turshak, yong'oq,
jiydalar yanagi
pishiqchilikka bemaolol
yetardi. Xullas, og'ir yillarda
bizni mevali daraxtlar boqqan,
desam mubolag'a bo'lmaydi.
O'sha paytlarni eslasam,
sahovatli zaminimizga yuz
karra, ming karra ta'zim qilgim
kelaveradi. Afsuski, hozirgi
paytga kelib manzara butunlay
o'zgarib ketdi. Sobiq ittifoq
yillarida cho'llar o'zlashtirilib,



TABIATNI MUZEYDA KO'RDIK

Uchinchi chorak o'quv yilining eng
uzun va murakkab davri bo'lgani
uchun ham barcha o'quvchilar biroz
charchashadi, toliqishadi.

Buni sezgan ustozimiz Zarofat opa
chorak yakunlab qolganida
«Bolajonlar, ko'pchiligingiz ushbu
chorakni yaxshi va a'lo baholar bilan
yakunladingiz. Sizlardan juda
xursandman. Kelinglar, ta'til kunlarida
shahrimiz bo'ylab sayohatga
chiqaylik», — dedilar.

Bu taklif barchamizga ma'qul tushdi.
Qayerga borishimizni kelishib ham
oldik.

Ertasiga biz «Tabiat ko'rgazmalar
uyi»ning oldiga kelganimizda
qalbimizni hayajon bosdi. Axir tabiat
bilan muzeyda tanishish g'alati-da!
Tabiatni kuzatish, undan bahra olish
naqadar yaxshi, axir!

Yurtimizning jannatmakon
ekanligiga bu yerga qo'yilgan
ekspozitsiyalarni ko'rib, yana bir bor iqrar
bo'ldik. Tuprog'i oltin, suvidan dur
unar ekan. Quyosh ham bizning yurti
ko'proq sevadimi, zarrin nurini
ayamaydi. Shuning uchun ham
bobolarimiz, Hizr nazar solgan o'lka
deyisharkan-da, degan xayol o'tdi.

Bizni qurshab olgan tabiatni ko'z-
qorachig'imizdek asrab-avaylash
bizning haqiqiy burchimiz ekanligini
dildan his qildik.

Zulfiya USMONOVA,
Toshkent shahar,
Akmal Ikromov tumanidagi
197-maktabning
5-sinf o'quvchisi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va albatta o'zimizning o'zbek tilimiz bor. Bu tilda bobolarimiz go'zal she'rlar bitganlar, g'azallar, ruboiylar yozganlar. Biroq biz yoshlar o'z tilimizning qadriga yetayapmizmi? Menimcha, unchalik emas.

Ayrim yoshlar ko'cha-kuylarda rus tilini aralash qilib so'zlaydilar. Bu esa atrofdagilarning g'ashiga tegadi. Biz uchun muqaddas bo'lgan ota-onalarimizni "Paxan", "Mamashka" kabi so'zlar bilan ataydilar. Axir biz o'zbekning farzandimiz-ku. Ayrim rusiyzabon aka-opalarimiz o'zbek tilida bizdan-da yaxshiroq so'zlaydilar. Nahotki, o'zimiz o'z tilimizda sof gapira olmasak. Bu mening fikrim, xolos. Siz-chi, aziz tengdoshlar, bu haqda qanday fikrdasiz?

Madina ERGASHEVA,
Toshkent viloyati; Qibray tumanidagi
19-maktabning 9-"A" sinf o'quvchisi.



Ey Gul, sen muhabbat ramzi, nafislik, go'zallik malikasisan. Ey Gul, sening bilan qizlar ko'ngli munavvar, bog'larimiz go'zaldir.

Gul, nega xomushsan, seni biror biror joyingga tong sahardan nafislik bilan yo'q inson zoti, aslo bu menga keng osmonning menga baxsh nafislik, go'zalligimga yana osmonning ishi bu, tong

bevafo xafa qildimi yoki ozor yetkazdimi? Nega ko'zingga yosh olasan. Gul chayqalib, tilga kirdi: «Yo'q, atalgan tabiat in'omi, bag'ri etgan tuhfasini, nafisligimga go'zallik qo'shishga uringan saharlab menga baxsh etiladigan tuhfa mening ochilmagan g'unchalarimga ham nasib etishini xohlagan edim, ammo ularni hali ochilmasdan insonlar uzib ketishdi. Mayli, bu g'unchalarim insonlarga quvonch, shodlik, qalblariga sevgi sururini bag'ishlamasin, toki bizlar doimo sevgi, muhabbat, go'zallik ramzi bo'lib insonlarni suyuntirib, gulga bo'lgan mehrini oshirsin va insonlar gullarga ozor berishmasin». Shunda inson: «Sening gullaring, g'unchalaring yaxshilikka doimo xizmat qilsin va sen tabiatning go'zallik dunyosidagi eng go'zal nafislik malikasi bo'lib xizmat qilgin. Sening uchun men insonlarga insof tilayman».

Dilorom RAJABOVA,
Alisher Navoiy nomidagi nafis san'at
litseyining
10-sinf o'quvchisi.

MENING ERTAG-IM

Mana, ikki yildirki, Erkin Malikov rahbarligidagi adabiyot to'garagiga qatnayman. Rahbarimiz bizga she'riyatning qonun-qoidalarini o'rgatadilar. Undan tashqari maqola, hikoya, ertaklar ham yozamiz. Do'stlarim Islom, Ilhomjon va Muyassarlar bilan birgalikda «Oqshom ertaklari» ko'rsatuvida e'lon qilingan konkursa ertak va she'rlar yozib jo'natgandik. Hay'at a'zolari mening ertagimni «eng zo'r ertak» deb tanlashibdi. Menga g'olib bo'lganimni xabar qilishganda, hatto quloqlarimga ishonmadim. To'garak rahbarimiz yana bir ertagimni kitob holida nashr ettirishini aytganlarida, sevinchim yanada oshdi. Men ulardan juda minnatdorman.

Abduazim SAMADOV,
Akmal Ikromov tumanidagi
193-maktabning
6-sinf o'quvchisi.

«KAMOLOT» DA BAXTIYOR YOSHLAR

«Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati tashabbus guruhi yoshlar orasiga, har bir maktabga kirib borib, faoliyat ko'rsatyapti. Bizning maktabimizda ham «Kamolot» guruhi tuzildi. Guruhga yetakchilik qilishni menga ishonib topshirishdi. Maktabdoshlarim ishonchini oqlashga astoydil harakat qilaman. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, biz yoshlar ota-bobolarimizdan-da aqlliyoq, dono va albatta baxtliroq bo'lishimiz shart. «Kamolot»dek guruhlarimiz bor ekan, shunday bo'lishiga aslo shubha yo'q.

Nasiba MAMADALIYEVA,
Sirg'ali tumanidagi
302-maktabning
9-"V" sinf o'quvchisi.

YANA BIR TADBIR BO'LDI

Maktabimizda fizika, matematika, ona tili va adabiyoti fanlaridan haftaliklar davom etayapti. Unda ochiq darslar o'tkazayapmiz. Kechalar, mushoiralar bo'layapti. Ochiq darslarimizga o'qituvchilar, ota-onalar ham qatnashayaptilar. Biz ularga bor bilimlarimizni ko'rsatayapmiz.

Haftalikda 7-, 8-, 9- sinf o'quvchilari yaxshi natijalarga erishishayapti. Ulardan Bibigul Ochilova, Nafisa Tilavova, Hayot Halilov, Aziz Islomov, Jo'rabek Hamdamov, Abror Latipovlar o'z bilimdonliklarini isbotlashayapti.

O'tkazilayotgan haftalikdan shuni yaxshi bildimki, agarda qaysi o'quvchi yil davomida fanlarni o'z vaqtida o'zlashtirib borsa, ochiq darsda uyalib qolmas ekan.

Sardor LATIPOV,
Navoiy viloyati,
Qiziltepa tumanidagi
24- maktabning
8-"A" sinf o'quvchisi.

«OLTIN TOJ» MAKTABDA

Maktabimizda «Oltin toj» musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining qanchalik topqiru bilimdon ekanliklarini namoyish etishdi.

Ayniqsa, 4-"B" sinf o'quvchisi Xusniddin Rasulov barcha tengdoshlari orasida eng zukko bola chiqib qoldi. O'zining hozirjavoblighi bilan barchani lol qoldirdi. Natijada «Oltin toj» sohibi bo'ldi.

Eng qizig'i — musobaqaga maktabimiz oshpazi Aziza opa Haydarova homiylik qildilar. Ular ishtirokchilarning barchasiga esdalik sovg'alarini taqdim etdilar.

Endilikda ushbu musobaqada qatnashish istagidagi bolalarning soni ortib boryapti. Maktabimizdagi «Oltin toj» o'z munosib egalarini topmoqda.

Nilufar XUDOYOROVA,
Sirdaryo viloyati,
Oq oltin tumanidagi
Al-Xorazmiy nomli
18-maktabning
yoshlar yetakchisi.

O'ZLIKNI ANGLASH DAVRI


Maktabimizda «O'zlikni anglash davri» mavzusida suhbat uyushtirdik. Unda tuman xotin-qizlar ko'mitasi raisi Mastura opa Shokirova ishtirok etib, «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989 yilda qabul qilingan «Bola huquqlari Konvensiyasi» haqida qiziqarli ma'lumotlar berdilar. Voyaga yetmaganlar bilan ishlash markazi boshlig'i Umar aka esa yoshlar orasida sodir etilayotgan jinoyat sabablari haqida gapirdilar. Sir emaski, hozirda yoshlarimiz orasida turli oqimlarga qo'shilib ketayotganlar ham uchrab turibdi. Shu kabi hodisalarning oldini olish uchun avvalo har bir o'quvchi ongiga ona Vatanga muhabbat ruhini singdirishimiz lozim. Axir har bir yosh avlod timsolida Vatanimizning kelajagini ko'ramiz-ku!

Bahs va munozaralarga boy bo'lgan davra suhbatida har bir o'quvchi o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdi. «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati Nizomi loyihasiga o'z takliflarini kiritishdi.

Saida JABBOROVA,
Toshkent tumanidagi 2-maktabning
9-"A" sinf o'quvchisi.

MUAMMO KO'P DOIMO

Hozir respublikamiz bo'ylab obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari avj olgan. Tengdoshlarimiz o'z maktablarini bog'u gulzorga aylantirish ishlari bilan bandlar. Hozirgi kunda maktabimizga ko'chatlar ekish haftaligini e'lon qildi. Ammo bizning maktabimiz bozor oldida joylashganligi uchunmi, havas qilarli gulzoru mevazor bog'larimiz yo'q. Atrofi o'ralgan temir panjaralarni ham kimlardir o'g'irlab ketishyapti. Meni o'ylantirayotgan muammo birgina bu emas. Hademay, 4-sinfni ham tamomlayman. Lekin hanuzgacha



ko'ngildagidek biror to'garakka a'zo bo'lolganim yo'q. Chunki maktabimizda ularning o'zi yo'q. Borlari ham nomigagina faoliyat ko'rsatadi.

Ko'plab maktablarda o'quvchilar teatrlarga, muzeylarga borib turishadi. Bolalar shoirlari, yozuvchilari, taniqli olimlar, iqtisodchi-yu tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazishadi. Lekin bunday uchrashuvlar bizning maktabimizda biror marta ham tashkil qilinmadi. Sayru sayohatlar haqida esa gapirmay ham qo'ya qolay.

Meni o'ylantirayotgan muammolar qachon o'z yechimini topar ekan-a?!

Mohira BOYMIRZAYEVA,
Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi
248-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

— «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining dasturi va nizom loyihasi o'quv maskanimizning har bir guruhlarida o'rganib chiqildi, — deydi Qo'qon texnika kollejining 3-kurs talabasi Zilola Aliyeva, — Prezidentimizning 2001 yil 24 yanvardagi yig'ilishda: «Maktablarda 1-4 sinf yoshdagi o'quvchilar, ya'ni 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar Harakat homiyligida ish olib boradigan Bolalar tashkilotiga birlashishi mumkin», degan fikrlariga asoslanib, kollejimiz direktori O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi K. Hasanov «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligida yurtimizning barcha o'g'il-qizlari uchun jamoat tashkilotlarini tuzish va ularga ko'krak nishonini tasdiqlash taklifini kiritdi.

6-10 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - «O'zbekiston g'unchalari». Bu tashkilot o'z oldiga Vatan, uning ma'nosi, gerbi, bayrog'i va madhiyasini chuqur o'rganishni asosiy vazifa qilib oladi.

10-14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar - «O'zbekiston umidlari». Tashkilot

a'zolari o'zi yashab turgan ko'cha, qishloq, shahar tarixi, uning obidalar va buyuk allomalari hayotini batafsil o'rganish orqali Vatanni sevis, ardoqlash va e'zozlash kabi his-tuyg'ularni shakllantirishdan iborat.

YOSHLAR KAMOLI - YURTIM JAMOLI

14 - 25 yosh o'smirlar uchun «Kamolot»ning asosiy vazifalarini Prezidentimiz o'z nutqlarida belgilab berganlar.

Bu tashkilotlar o'z ko'krak nishoniga ega bo'lsa, har bir yoshga bo'lgan hurmat, ishonchini oshiradi va bu jarayonda qatnashayotganidan g'ururlanish hissini uyg'otadi.

Tavsiya qilinayotgan ramzlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan globus, O'zbekiston xaritasi va unga joylashtirilgan davlat gerbi tasvirlangan ki, jahon hamjamiyatida O'zbekistonning munosib o'rinni egallab borayotganligini aks ettiradi. Xarita fonida berilgan bayrog'

ranglari davlatimiz bayrog'i ramzlarini to'liq ifodalaydi. Kichik maktab yoshidagilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga tavsiya qilinayotgan nishonda bolalar yosh g'unchalar ramzi sifatida ifodalanagan. O'smirlarimiz yulduzdek porlab yashashga

intilishlari lozimligidan kelib chiqib, nishonda yulduzlar tasvirlangan. Elim deb, yurtim deb yonib yashamoqliklari lozimligidan kelib chiqib, ularning farovon turmush tarzini yaratishda fidoyilik ko'rsatishlariga da'vat sifatida mash'al ramzi kiritilgan. Shu bilan birga jamiyat hayotida yoshlarimizning o'z o'rinlarini topishlari, ilm olishlari, kasb-korlarni yetuk egallashlari, ma'naviy barkamollikka erishishlari, hayot mazmunidan to'liq voqif bo'lishlaridagi ahamiyatidan kelib chiqib, nishonlarga kitob ramzi kiritilgan.

XXI asrda yashaydigan yoshlarimizning butun faoliyati

«O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat» shiori, qolaversa, hayot mazmunini tashkil etishini inobatga olib, nishonlardagi xarita ustidagi kitob sahifalarida qabariq harflar bilan kelajakdagi buyuk davlat yoki Vatan - yagonadir, Vatan - bittadir degan so'zlar yozib qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu o'z navbatida, ramziy ma'noda amalda buyuk davlatni barpo etishga yoshlarimizning bevosita dahldorligini eslatish bilan birga chaqiriq ham bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tavsiya qilinayotgan nishonlarda globus sirtidagi hoshiyaga o'yib, rasmda ko'rsatilmagan bo'lishiga qaramay, milliy qadriyatimiz bo'lmish hadislardagi «ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir» so'zlari ham yozib qo'yilishi mumkin. Tavsiya qilinayotgan ramzlar respublikamizdagi yakkilik, birdamlikning namunasi sifatida berilayotgan moviy rangdagi sakkiz qirralik yulduz ichiga joylashtirilgan holda ham ifodalanishi mumkin.

Joriy etilajak nishonlarni tantanali ravishda topshirish tadbirlari haqiqiy esda qolarlik voqea darajasida o'tkazilsa, yoshlarda g'urur hissini kuchaytiradi.

Munavvara PIRMATOVA yozib oldi.
Andijondagi 4-maktab o'qituvchisi.

«UXLAB YOTGAN» HAQIQAT

Shifokor deganda ko'z oldimizga bemorlarga e'tiborli, mehr- muhabbatli, samimiy insonlar keladi. Ular bemorlarga vaqti kelganda qayta hayot baxsh etishga ham qodirdir. Xasta ko'ngillarga malham bo'luvchi ham, shirin so'zlar bilan ko'nglini ko'targuvchi ham ular. Oppoq xalat kiygan oq niyatli shifokorlar el baxtiga doimo omon bo'lishsin. Ammo oppoq liboslariga qora dog' tushirayotgan shifokorlarimiz ham yo'q emas ekan.

MAKTABINI SOG'INIB KETDI

2000-yilning sentyabr oyi edi. Maktabdan qaytgan Davron tomorqada tasodifan yiqilib, oyog'idan lat yedi. O'sha kuni u hech qanday og'riq sezmedi. Ikkinchi kuni esa oyog'i shishib, biroz issig'i ko'tarildi. Dadasi kechqurun Davronni Far-g'ona viloyatiga qarashli Uchko'prik tuman shifoxonasining travmatologiya bo'limiga olib keldi. Bu yerda shu bo'lim shifokori Bahodir Usmonov bolani tekshirib, yiqilgan joyida qon qotib qolganligini aytdi. Jarrohlik asboblari yordamida qotib qolgan qonni olib tashladi-yu, hamma dard o'sha kundan boshlandi. Chunki shifokor muolaja davomida bolaning oyog'ida jarrohlik asbobining uchini sindirib qo'yan va bu ishni bolaning ota-onasidan yashirgan edi. Oradan bir hafta o'tar- o'tmas Davronning oyog'iga yana tig' tegdi. Bir necha oylik qiyinchiliklar Davronga sog'lig'ini qaytib bermadi. U bilan birga dadasi ham tunlarni tongga ulab, bedor o'tkazardi. Davron yotaverishdan zerikib, «maktabimni sog'indim» deb xarxasha qila boshladi. Axir 6 oy shiftga termulib yotishning o'zi bo'ladimi?!

DAVRONBEK KIMDAN XAFA?

Farhodjon aka o'g'lining ahvoli yaxshilanish o'rniga kundan -kun yomonlashib borayotganidan havotirda edi. Ammo ko'nglining bir burchagida allaqanday umid uchqunlardir. Shifokorlarning aytganlarini yelib- yugurib bajarar, ularning ko'zlariga iltijoli boqardi. Dori- darmonlarga ketayotgan harajatlarni-ku gapirmasa ham bo'ladi. Davron esa kundan-kunga holdan toyib borardi. O'zining ko'z yoshlari-yu dadasining oqargan sochlari uxlab yotgan haqiqatni uyg'otolmasdi.

SINFDOSHLAR YORDAMI

Davronjonning ahvoli sinfdoshlarini ham tashvishga solib qo'ydi. Shunda unga biroz bo'lsa-da, yordam bo'lsin, deya mablag' yig'ish tashabbusi bilan chiqdilar. O'quvchilar boshlagan bu xayrli ishga sinf rahbarlari, hatto maktab direktori ham qo'shilishdi. Bolalar to'plagan pullarini Davronning onasiga keltirib berishganda, uning ko'zlarida mehr yoshlari halqalandi. Lekin bu pullar ham Davronning dardiga malham bo'lolmadi. Kuniga qilinayotgan 70 talab ukollar, dori- darmonlar ana shu shifokor amakining shaxsiy dorixonasidan olinishi shart edi.

Tuman kasalxonasidan shifo topmagan Davronjon Qo'qon shahar travmatologiya bo'limida yana bir oy shifo o'rniga azob tortdi. Nihoyat, «uxlab yotgan haqiqat»ni Far-g'ona shahar viloyat shifoxonasining mohir jarrohi Tilavoldi Qosimovich uyg'otdi. Davronning oyog'ida 0,4 sm. uzunlikdagi jarrohlik asbobining zanglab, chirib qolgan qoldig'i topildi. Davronbekni qiynab kelgan dard olib tashlandi. Ammo hozir Davron ikki qo'ltiq tayoq yordamida yuradi. Do'stlari uni kelib ko'rib turishadi.

Uchko'prik tumanidagi bolajonlar esa jarroh emas, qallob shifokor borligini bilib, hatto kasal bo'lishga ham qo'rqib qolishgan. El ardog'idagi oq xalatli mehribon shifokorlarimizni biz doimo ardoqlaymiz. Ularga umid bilan boqar ekanmiz, ular ham yurt kelajagi bo'lmish bolajonlarni ham mehr bilan ardoqlasalar. Toki, birgina xato bir umrlik azobga aylanmasin.

Ma'mura MADRAHIMOVA,
Far-g'ona viloyati, Uchko'prik tumani, Qumariq qishlog'i.

Bolajonlarimiz sayohatni juda sevisadi. Shuning uchun ham Shayxontohur tumanidagi 34-maktab o'quvchilari butun dunyo bo'ylab og'zaki sayohatni uyushtirishdi. Rus va o'zbek tilli maktab o'quvchilari avvaliga Rossiyan tanlashdi.

Sayohatdan oldin ular shunday savollar tuzdilar ki, ularga hatto kattalar ham javob berishi amri mahol edi. Biroq, bolalar kattalarni ham viktorinada ishtirok etishga chaqirishdi. «Rossiya xususida» nomli o'yin uchun 500 dan ko'p savollar tuzilgan bo'lib, ular Rossiyaning tarixi, geografiyasi, madaniyati, tili va O'zbekiston bilan aloqasi xususida edi.

Ayniqsa, o'zim tuzgan: «Buni Xitoyda ko'p asrlar ilgari o'ylab topishgan. Ommaviy, ko'p qismli ishlab chiqarish jarayoni Rossiyada XVIII asrdan boshlangan. O'zbekistonlik oilalarning barchasiga ma'lum. Nima u?», savolim ishtirokchilarni o'ylantirib qo'ydi. Biri «shoyi» desa, biri «choy» deydi. Nahotki qiyin bo'lsa? Axir «samovar»-ku.

Viktorina 77 ochko bilan tugab, ahil guruh 4- «A» va 6- «A» sinf o'quvchilari birinchilikni qo'lga kiritdilar. Ularga Rossiya elchixonasining maxsus sovg'alari topshirildi. Ajoyib o'tgan kechada Rossiya elchixonasining birinchi kotibi Dubyanskiy Sergey

Yuryevich: «Ushbu sayohatni aynan mening vatanimdan boshlaganingiz men uchun quvonarli hol. Ayniqsa, murabbiylar va ota-onalarning faolligi, ularning o'zaro hamkorligi katta taassurot qoldirdi. Bular maktab direktori Nazira Maqsudovaning sa'y-harakatlari bejiz emasligidan dalolatdir. G'aroyib sayohat uyushtirib, o'quvchilarni qiziqitira olgani, chetki tengdoshlari bilan tanishtirib, o'zaro do'stlashtirishi ulkan maqsaddir».

Ha, tadbir taxminan to'rt soatga davom etdi. Lekin bolalar charchamadilar. Ularning tuzgan krossvordlari Rossiyalik mashhur ko'rsatuv «Pole chudes»ga arzigulik edi. Ayniqsa, Dilshodbek Kattabekovning tashrifi bolalarni yanada quvontirdi. Uning qo'shiqlari kechani yanada fayzli qilib yubordi.

Flora FAXRUTDINOVA.



Тадбиркорликнинг қандай ўзига хос хусусиятлари бор? Бу саволга жавоб топиш мақсадида, эътиборингизни тадбиркорлик билан шуғулланиб юрган, фермер хўжалиги раҳбари Баҳромжон Абдуллаев билан бўлган суҳбатга қаратмоқчимиз.

— Баҳромжон, сизнинг тадбиркорлик билан шуғулланишингиздан асосий кўзлаган мақсадингиз нимадан иборат?

— Тадбиркорлик билан шуғулланишдан асосий мақсадим, халқимизга кўпроқ товарлар етказиб бериб, уларнинг эҳтиёжини қондиришдан иборат. Қолаверса, бундан оиламиз ҳам каттагина фойда кўради.

— Тадбиркорликни нимадан бошлагансиз?

— Бундан 4 йил олдин, оила аъзоларимиз билан келишиб, ўз ишимизни очмоқчи бўлдик. Ўзимиз истиқомат қилаётган жамоа хўжалигидан 20 гектар ерни ижарага олди ва кузги бугдой экдик. Мақсадимиз кузда экилган бугдойни май ойи охирларига йиғиштириб олиб, ўрнига эрта пишар пахта навидан экиш эди. Шу билан ердан икки марта ҳосил олиб, катта даромад қилишни мўлжалладик. Бу ишга оилавий жамғармамизни жалб этдик. Банкдан 2 млн. сўм ҳажмда 3 йил муддатга қарз олдик. Бу маблағларга уруғлик, трактор, ўғит ва бошқа зарур материаллар сотиб олдик. Яна 20 бош сигир сотиб олиб, кичик ферма ташкил қилдик.

— Баҳромжон, бу фаолиятингиз билан анча таваккал қилган кўринасиз. Сизни бунга ким мажбур қилди?

— Бундай қилишимизга, бизни

ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

ҳеч ким мажбур қилгани йўқ. Бундай ишга қўл урганимизнинг энг асосий сабабларидан бири, шу кунларда давлатимизнинг галла мустақиллигини қўлга киритиш учун фермерларга катта эътибор бераётганлиги. Етиштирган дон маҳсулотларимизнинг бозори чаққон. Пахтага келсак, бу маҳсулот ҳозирги кунда энг бозорбоп. Унинг бир қисmini чет элга сотиш ниятимиз бор. Шу билан бирга фаолиятимизнинг қанчалик қалтис эканлигини, агар табиат инжиқлик қилиб, об-ҳаво ноқулай келиб қолса, катта миқдорда зарар кўришимизни билган ҳолда бу ишга қўл урдик. Лекин ҳамма нарса биз ўйлаганимиздек бўлса, биз 10 йиллаб ишлаб топа олмаган даромадни бир йилда топишимизни ҳам яхши тушунар эдик.

Энг асосийси, биз эркин иқтисодий фаолият кўрсатишга аҳд қилдик. Барча масъулиятни ёлғиз ўзимизга олиб, ҳамма билим имкониятларимизни ишлатиб кўрмоқчи бўлдик.

— Бу йўлда қийинчиликлар ҳам бўлгандир-а?

— Ҳа, албатта. Лекин меҳнат қилишдан кўрққанимиз йўқ. Йўл-йўлакай кўп нарсаларни ўрганишга тўғри келди. Хусусий тадбиркорлик, ижара, бухгалтерия, солиқлар ҳақида чиққан қонунларни ўргандик. Уларга риоя қилиб фаолият кўрсатдик. Етиштирган чорва маҳсулотларини сотишда қўшни фермерлар билан рақобат қилишга тўғри келди.

— Сиз бошлаган ишингиздан мамнунмисиз?

— Ҳа, албатта. Яратганга минг қат-

ла шукур. Мана, ҳозир бутун туманда номимиз кетган. Бошлаган ишимиз яхши самара берапти. Йилдан-йилга даромадларимиз ошиб борапти. Ўйил-қизларимиз ёнимизга киришди. Хўжалигимиз йилдан-йилга кенгайиб бормоқда. Том маънода шу ернинг, шу ватаннинг эгасига айландик. Бунга мустақиллигимиз шарофати туфайлигина, бозор иқтисодиёти имконият яратиб бергани туфайлигина эришдик.

Келинг, энди суҳбатдан келиб чиқадиган хулосаларни чиқаришга уриниб кўрайлик.

Шундай қилиб, тадбиркорлик билан шуғулланишдан мақсад, бу **фойда олишга бўлган интилишдир**. Бу хусусият бозор иқтисодиёти шароитида, энг асосийларидан бири бўлиб, иқтисодий манфаатдорликни юзага келтиради. Кишиларни тадбиркорликка, иқтисодий фаолият билан шуғулланишга ундайди. Шу сабабдан одамлар тадбиркорликка жуда қизиқишади.

Тадбиркорлик ҳеч нарса йўқ жойда, ўз-ўзидан пайдо бўлиб қолмайди. Таърифда таъкидлаганидек, у кишилардан **маблағ, мулк билим ва имкониятларини ишга солишни** талаб қилади. Чунки ҳар қандай товар ёки хизматларни ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш маълум миқдорда бошланғич мулк ва маблағга таянмоғи керак. Тадбиркорликни бошлаш учун киши энг аввало қандайдир бошланғич мулк ёки маблағнинг эгаси бўлиши лозим бўлади. Агар мулк ва маблағ бўлмаганда, билим ва имкониятларини, таниш-билишларини ишга солиб, ўзгалар мулкни ижа-

6-дарс

рага олиши, маблағларни эса қарзга олишига тўғри келади.

Ишни ташкил қилиш ва фаолият кўрсатиш борасида тадбиркор ҳамма **иқтисодий масъулиятни ўз бўйига олади**. Таваккал қилишга тўғри келади, чунки кўзланган мақсадга ҳамма вақт ҳам эришилавермайди. Фойда ўрнига зарар ҳам кўриши, синиши ҳам мумкин.

Тадбиркор шуларни ҳисобга олган ҳолда **мустақил, эркин иш юритади**. Унга бозордан бошқа ҳеч ким таъсир ўтказа олмайди. Нима? Қандай? Ким учун?, деган саволларга бозор шароитидан келиб чиққан ҳолда ўзи мустақил жавоб топади.

Албатта бу йўлда тадбиркорлар **ҳалоллик билан иш юритишлари, ўзаро рақобат қилишлари ва тадбиркорликка оид маълум қонун-қоидаларга риоя қилиб, ўз шаънларига доғ туширмасликлари лозим бўлади**.

Юқорида айтилганларни жамлайдиган бўлсак, **тадбиркорлик кишиларни ўзига хос фаолияти бўлиб, у:**

— эркин, мустақил иқтисодий фаолият юритиш;

— фойда олишга бўлган интилиш;

— бошланғич мулк ва маблағни ишга солиш;

— ташибускорлик, барча иқтисодий масъулиятни зиммага олиб, таваккал қилиш;

— ҳалол иш юритиш, қонунларга риоя қилиш;

— ҳалол рақобатда қатнашиш;

— маълум обрўга эга бўлиш ва унга доғ туширмасликка ҳаракат қилиш **каби хусусиятларни ўз ичига олар экан**.

Одатда тадбиркорлик фаолияти ишлаб-чиқариш, тижорат-коммерция, молиявий, воситачилик ва сугурта турларига бўлинади.

1. Ишлаб чиқариш фаолияти. Бу ҳолда тадбиркор бевосита ишлаб чиқарувчи ролида фаолият кўрсатади. Ишлаб чиқаришнинг табиий, капитал ва меҳнат омилларини бирлаштириб, ҳаракатга келтиради. Ишлаб чиқариш воситалари - ер, бино, иншоат, асбоб-ускуналар, хом ашё сотиб олади, ишчи ходимларни ёллайди. Турли хилдаги товарлар ишлаб чиқаради, ранг-баранг хизматлар кўрсатади. Ишлаб чиқарган маҳсулотларини истеъмолчиларга, харидорларга сотади. Бу ҳолда ишлаб чиқариш тадбиркор учун энг асосий фаолият тури ҳисобланади.

Одатда тадбиркорликнинг бундай тури билан салоҳиятли, бизнесда яхшигина мавқега эга бўлган, узоқни ўйлаб иш юритадиган тадбиркорларгина шуғулланишади.

2. Тижорат. Тадбиркорликнинг бундай тури билан шуғулланувчилар, ишлаб чиқарувчи корхоналардан тайёр товар сотиб олишади, сўнг эса истеъмолчиларга, харидорларга сотишади. Албатта, бу ҳолда товарнинг сотилиш нархи, унинг харид нархидан юқори бўлади. Бу нархларнинг фарқи тадбиркорлик фойдаси сифатида тадбиркор томонидан ўзлаштирилади. Тадбиркорлик фаолиятининг бундай тури билан, одатда бизнесда ўзини ҳали яхши тутиб олмаган тадбиркорлар, бошланғич маблағ жамғариш мақсадида шуғулланишади. Чунки, бу фаолият кам чиқимли бўлиб, тез орада ўз натижаларини беради. Лекин ти-

ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ТУРЛАРИ

жорат бозор иқтисодиётига ўтиш даврига хос фаолият бўлиб, унинг самараси борган сари камайиб боради.

3. Молиявий тадбиркорлик - бу тижоратга ўхшаб кетади. Фақат молиявий тадбиркорликда товар олди-сотдиси ўрнига, пул ва қимматли қоғозлар олди-сотдиси билан шуғулланишади. Пул маблағлари қарзга берилади. Чет эл валюталари, акция ва бошқа қимматли қоғозлар сотиб олинади ва сотилади. Молиявий тадбиркорликда қарз берилганда, процент кўринишида, олди-сотди жараёнларида эса харид ва сотиш нархлари орасидаги фарқ кўринишидаги фойда ўзлаштирилади.

4. Воситачилик. Бундай тадбиркорларни авваллари - даллоллар деб аташган. Даллоллар кўпгина мол бозорларида фаолият кўрсатишган. Даллол мол эгаси ва мол харидорининг ўртасидаги олди-сотди жараёнида воситачилик қилган ва шунинг эвазига хизмат ҳақи олган. Бир қарашда даллолнинг меҳнати арзимас нарсасдек кўринади. Лекин кўпчилик уларнинг меҳнатидан фойдаланишган ва ҳозирда ҳам фойдаланиб келишади.

Даллолнинг умри бозорда ўтиб, у бозорни, бозордаги нархни, молнинг қанақалигини яхши билганлиги учун ҳам унинг хизматидан фойдаланишади.

Худди шунингдек, бозор иқтисодиёти шароитида воситачи тадбиркорларнинг ҳам ўз ўрни бор. Улар харидор ва сотувчи ўртасидаги олди-сотди жараёнларини тезлаштиради. Бозорни яхши билади. Қасрда қандай товар, қандай нар-

хда сотилаётганлиги ҳақида маълумотга эга бўлади. Маълумот эса пул туради. Бундай тадбиркорлар - “бахтли тасодифи” кутиб яшайди. Маълум пул маблағига эга бўлган, худди шу тадбиркорлардан товар ишлаб чиқарувчилар стишиб чиқади.

5. Сугурта. Тадбиркорликнинг бундай тури ҳозирда кенг тарқалган. Бундай фаолият билан анча мавқега эга бўлган тадбиркорлар шуғулланишади, чунки у катта бошланғич маблағни талаб қилади. Тадбиркор турли-хил кутилмаган ҳолатларда кўриладиган зарарни қоплашга маълум ҳақ эвазига кафолат берадиган шахс сифатида, фаолият кўрсатади. Масалан, бир корхона банкдан қарз олапти. Бундай ҳолатда, банк корхонадан мабодо қарз фоизи билан ўз вақтида қайтарилмаса, кимдир бошқа шахс (корхона) бу маблағни қарз олган корхона ўрнига қайтара олиши

ҳақидаги кафолат хати талаб қилишга ҳақли. Шунда, сугурта фаолияти билан шуғулланувчи ташкилотлар маълум ҳақ эвазига бундай мажбуриятни ўз бўйинларига оладилар.

Албатта, сугурта қилинадиганларнинг 100 тадан биттаси қарзни уза олмайдиган ҳолатга тушибди мумкин. Шунда 99 та корхона тўлаган сугурта ҳақидан тушган пул маблағининг бир қисми эвазига банкдан олинган қарз ёпилади. Қолган пуллар эса сугуртачининг тадбиркорлик фойдаси сифатида ўзлаштирилади.

Ҳозирда қарз сугуртасидан ташқари мулк сугуртаси, ҳаёт сугуртаси, медицина сугуртаси каби сугурта шакллари ҳам бор. Бундай сугурта турларида муттасил тўлаб бориладиган сугурта бадаллари эвазига, бирор кор-ҳол юз берганда етказилган зарар ёки йўқотишнинг ўрни қопланади.

АНИЙИ МУДДАО БЎЛДИ

Бизнинг Жиззах шаҳридаги Й.Охунбобоев номи 6-сон мактабимиз иқтисод фанига ихтисослаштирилган. Яқинда сеvimли газетамиз “Тонг юлдузи” саҳифаларида “Иқтисоддан сабоқлар” сиртқи мактаб танлови бошланганлиги мактабимиз ўқувчилари учун ани мууддао бўлди ва биз танловда мунтазам қатнашишга аҳд қилдик. Устозимиз Рустам Муродов айтганларидек, Э.Сариқов ва Б.Ҳайдаровлар бошчилик қилаётган бу тадбирда республикамиздаги барча мактаб ўқувчилари иштирок этишлари таклиф этилган. Бу эса иқтисодий билимларимизни янада кенгайтириб, келгусида Ватанимиз тараққиётида ўз ўрнимизга эга бўлишга имкон беради.

Умида ЖАЛМОНОВА,
6-синф ўқувчиси.

1. Тадбиркорликнинг хусусиятларини сананг.

Жавоб:

ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ДАРСИ ЮЗАСИДАН САВОЛ ВА ТОПШИРИҚЛАР

3. Куйидагиларга ўз муносабатингизни билдириг. Тўғрисига "Р", нотўғрисига эса "Ё" ҳарфларини мос каттакларга ёзинг.

1. Тадбиркорга бозордан бошқа ҳеч ким таъсир ўтказа олмайди. ☐

2. Тадбиркорликни бошлаш учун катта пул маблағига эга бўлиш шарт. ☐

3. Тадбиркор: Нима? Қандай? Ким учун? деган саволларни ☐

мустақил ҳал қилиш ҳуқуқига эга эмас.

4. Нотўғриси топинг. Қўлланмада баён қилинган Баҳром Абдуллаевнинг тадбиркорлик фаолиятдан

A) фақат унинг оиласи;
B) аҳоли;
D) давлат;
манфаатдор.
Жавобингизни асосланг.

7. Куйидагиларга ўз муносабатингизни билдириг. Тўғрисига "Р", нотўғрисига эса "Ё" ҳарфларини мос каттакларга ёзинг.

1. Таваккал қилишдан қўрқадиган одамдан яхши тадбиркор чиқмайди. ☐

2. Тадбиркорликнинг фаолиятдан давлат ҳам фойда кўради. ☐

3. Тадбиркор кўрган зарарни давлат қоплайди. ☐

4. Тадбиркорликнинг асосий мақсади ном чиқаришдан иборат. ☐

6-топшириқ

6. Баҳром Абдуллаевнинг қўшни фермерлар билан рақобати нималарда ва қандай намоён бўлиши мумкин.

2. Тадбиркорликнинг ташаббускорлик, барча иқтисодий масъулиятларни зиммага олиб, таваккал қилиш ҳислати қўлланмада баён қилинган Баҳром Абдуллаев фаолиятида қандай намоён бўлган?

Жавоб:

5. Биринчи устунга тадбиркорликка хос хусусиятлар, иккинчи устунга эса уларнинг Баҳром Абдуллаев фаолиятида қандай намоён бўлганлиги ёзилсин.

Хусусиятлар	Кўриниши

8. Тадбиркорлик тўғрисидаги қонунлар билан танишиб (катталардан сўраб, газеталарни ўқиб), баён қилинг.

ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ТУРЛАРИ ДАРСИ ЮЗАСИДАН САВОЛ ВА ТОПШИРИҚЛАР

3. Тадбиркорликнинг ҳар бир турида даромад манбаи нималигини аниқлаб, жавобингизни жадвал кўринишида ифодаланг.

Тадбиркорлик турлари	Даромад манбаи

4. Нотўғриси топинг. Молиявий тадбиркорликда

- A) қимматбаҳо қоғозлар сотиб олинади ва сотилади;
B) чет валюталари сотиб олинади ва сотилади;
C) пул маблағлари қарзга берилади;
D) кўчмас мулклар сотиб олинади ва сотилади.

5. Биринчи устунда тадбиркорлик турларида бажариладиган ишларни эслаб, ўнг томондаги мос келадиганлари билан туташтириг.

Воситачилик	Кутилмаган ҳолатлардаги зарарни кафолатлаш
Молиявий тадбиркорлик	Тайёр маҳсулотларни сотиб олиб, истеъмолчиларга сотиш
Суғурта	Товарлар ва хизматлар ишлаб чиқариш
Тижорат	Акцияларни сотиб олиш ва сотиш
	Харидорга мос сотувчи, сотувчига мос харидор топиш.

1. Суғурта билан шуғулланувчи тадбиркор қандай фаолият кўрсатади? Нима учун унинг фаолияти тадбиркорлик ҳисобланади? Жавобингизни асосланг.

2. Тадбиркорлик фаолият турларини сананг.

6. Воситачилик билан шуғулланувчи шахснинг фаолияти тадбиркорлик эканлигини асосланг.

7-топшириқ

7. Куйидагиларга ўз муносабатингизни билдириг. Тўғрисига "Р", нотўғрисига эса "Ё" ҳарфларини мос каттакларга ёзинг.

1. Тижоратчи товарларни арзон нархда сотиб олиб, қиммат нархда сотади. ☐

2. Молиявий тадбиркор қимматбаҳо қоғозларни арзон нархда сотиб олиб, қиммат нархда сотади. ☐

3. Суғуртачи пул қарз бериш билан шуғулланади. ☐

4. Хизмат кўрсатиш билан шуғулланувчиларнинг фаолияти тадбиркорликка кирмайди. ☐

8. Нотўғриси топинг. Ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи тадбиркор

- A) ишчиларни ёллайди
B) хом-ашё, асбоб-ускуналар сотиб олади
C) савдо билан шуғулланмайди
D) ишлаб чиқаришнинг табиий, капитал ва меҳнат омилларини бирлаштириб, ҳаракатга келтиради.

HOTAMIYNING MOSKVAGA TASHRIFI

Eron Prezidenti Muhammad Hotamiy 12-15 mart kunlari Moskvaga rasmiy tashrif bilan keldi. Bu — 1979 yilgi Erondagi islom inqilobidan keyin Eron Prezidentining Rossiyaga qilgan birinchi tashrifidir. Azaldan va hozirda ham Rossiya — Eron hamkorligini mustahkamlash har ikki tomon uchun ham juda manfaatlidir.

Hotamiy tashrif davomida Rossiya Prezidenti V.Putin bilan uchrashdi. Ikki davlat Prezidentlarining o'zaro muloqotlari mobaynida Eronning Rossiyaga neft va gaz yetkazib berishi, Rossiyaning Erondagi yangi Atom Elektro Stansiyalarini qurishda yordamlashishi, Bumer shahrida AES qurishni yakunlash va ikki davlat hududiga narkotik moddalarini olib kirishga va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashish to'g'risidagi hujjatlar imzolandi. Shuningdek, ikki Prezidentning yakka holdagi suhbatlari davomida Rossiya tomoni Eron uchun zarur bo'lgan zamonaviy qurollarni sotish masalasini o'rta qo'ydi. Muhammad Hotamiy esa Kaspiy dengizidagi ulkan neft va gaz zahiralari taqsimlab olish to'g'risidagi Tehron rejasini Putin tomonidan qo'llab-quvvatlanishi Eron uchun juda muhimligini aytdi. Rossiyaning Eron bilan neft va gaz, og'ir va yengil sanoat, harbiy texnika, qurilish sohasidagi hamkorligi Rossiya uchun juda manfaatli bo'lib, unga mislsiz foyda keltiradi hamda ortiqcha xarajatlardan saqlaydi. Chunki Eron jug'rofiy jihatdan Rossiya uchun juda qulay hududda, ya'ni, fors ko'rfazida, neft va gaz zahiralarga boy bo'lgan Kaspiy dengizi bo'yida, MDH davlatlariga tutashgan holda joylashgan. Rossiyaga zarur neft va gazni yetkazib berishning qimmat bo'lmagan va eng qulay, foydali bo'lgan yo'li bu Erondan olinadigan neft va gazdir. Shu sababli ham Rossiya uchun Eron bilan hamkorlik qilish juda muhim.

Eron hozirda neft va gaz zahiralari ko'pligi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakatning og'ir va yengil sanoati ham kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Eron qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bu yerning tuproqlari ham juda unumdor.

IROQDA QURBONLAR SONI 2,46 MLN.DAN OSHDI

Iroq sog'liqni saqlash vazirligining ma'lumotiga ko'ra, mamlakatda dori-darmon va oziq-ovqat yetishmasligi IAT-da birgina shu yilning yanvar oyida 16 mingdan ortiq bolalar va qariyalar qurbon bo'lishgan. Iroqqa nisbatan qo'llangan xalqaro iqtisodiy sanksiyalar bu kabi minglab begunoh odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelmoqda.

2001 yilning yanvar oyida 5 yoshgacha bo'lgan bolalardan 7,8 mingtasi respiratorlik, oshqozon-ichak kasalliklari va to'yib ovqat yemaslik oqibatida qurbon bo'lganlar.

Shuningdek, 8,2 mingdan ortiq yosh bola yurak, qon tomir, buyrak xastaliklari, gipertoniya, qandli diabet va saraton kasalliklariga chalilib, dunyodan bevaqt ko'z yumdilar.

Ma'lumki, Iroqqa nisbatan 1990 yilning avgustidan iqtisodiy jazo belgilanib, u blokadaga olingan edi. Iroq sog'liqni saqlash vazirligining xabariga ko'ra, shu 1990 yilning avgustidan beri mamlakatda dori-darmon, oziq-ovqat yetishmasligi oqibatida 2,46 mln. odam qurbon bo'lgan.

KERALADA AVTOBUS PORTLASHI

Hindistonning Kerala shtatida yo'lovchilar bilan liq to'la bo'lgan avtobus katta tezlikda kelayotib, yengil avtomobil bilan to'qnashib ketdi va ag'darilib tushdi. So'ng, shu zahotiyoq avtobusning benzobaki portlab ketdi. Avtobusning ichida 70 kishi bor edi. Portlash natijasida 41 kishi qurbon bo'ldi, 15 kishi og'ir tan jarohati oldi, 14 yo'lovchi bir amallab olovdan qutilib qoldi.

Portlash joyidagi qishloq aholisi yo'lovchilarga katta yordam ko'rsatdi. Jarohatlanganlar tanalarining 40 dan 90 foizigacha kuygan holda kasalxonaga yetkazildi.

Bor xo, kel xo,
Hamalim ha, amalim ha.
Sayl bizda, tezroq yetib kel,
O'ynagani kel, kuylagani kel.
Tortishgani kel, kulgani kel,
Kelmasang ham kel-o-o-o...

Eshityapsizmi, jarchilar bizni Navro'zi ayyomga chorlashyapti. Sobir Rahimov tumanidagi 46-o'rta maktabning 2-A sinf o'quvchilari Navro'z shodiyonalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rishibdi. Sinf rahbari YOqutxon Dadaxo'jayeva va musiqa o'qituvchisi Muborak Ahmedova mahorati bilan sahnalashtirilgan bayram tantanalari bizda bir olam taassurot qoldirdi. Milliy qadriyatlarimizdan dor o'yini, kurash, laparlar, alla qo'shig'i va «Dilxiroj» raqsini shunday ijro etishdiki, nazarimda sahnada o'quvchilar emas, balki yosh aktyorlar namoyon

MAKTABDA

bo'lgandek. Bahor taomlaridan sumalak, ko'k chuchvara, ko'k somsa, halimlarni totli va mazali pishirish sahnasini ko'rsatishdi.

«Dilxiroj»ni qiyomiga yetkazib xirom etgan Nozim Hakimov, «Oyijon, oyijonim, boshginam og'ridi-yey» qo'shig'ini ijro etgan Nigora Habibullayeva, Ma'suda Rixsiboyevlar, kurashchilar Hasan-Husan Abdullayevlar, taekvandochi Olimjon Zohidov, yetti yoshli jamoa Katasida 2-o'rinni egallagan karatechi Behzod Matyoqubovlarning mahoratiga lol qoldim. «Sinchalak»ka Shahrizoda Sharofuddinova va Shahnoza Nazarovalar raqsga tushishdi.



KUTILMAGAN MEHMON

Venesuela Prezidenti Ugo Chaves kutilmagan holda Kubaga tashrif buyurishini aytdi. Chaves Kubaning qo'shnisi Dominikoy VESP-siga qilgan tashrifidan so'ng bu e'lonni ma'lum qildi. Bu xabar esa Kuba rahbari Fidel Kastroni hayron qoldirdi. Chunki, tashriflari kamida 20-25 kun oldin e'lon qilinadi. Shunday qilib, Chaves o'zining Kubaga tashrifi haqidagi e'londan kamida bor-yo'g'i 1 kun o'tib, Kastro bilan uchrashdi.

Kastro va Chaves suhbatlarining asosiy mavzusi energetika sohasidagi hamkorlik bo'ldi.

BUDDA HAYKALI YO'Q QILINMOQDA

Tolibonlarning tashqi ishlar vazirligi Vakil Ahmad Mutavakil BMT bosh kotibi Kofi Annon bilan uchrashuvi chog'ida, Afg'onistondagi islom diniga oid bo'lmagan tarixiy obidalarini buzib tashlash ishlari nihoyasiga yetayotganini aytdi. Kofi Annon esa Tolibonlar katta xato qilayotganini, bu narsa tolibonlarga nisbatan nafratning kuchayishiga olib kelishni ta'kidladi. Mutavakilning aytishicha, Bamian shahri yaqinidagi ikkita ulkan Buddha haykalini buzib tashlash, ya'ni portlatish jarayoni ham nihoyasiga yetdi.

ROMALLOH SHAHRI QURSHOVDA

Isroil harbiylari Falastining Romalloh shahrini butunlay qamal qilib oldilar. Isroil tomoning aytishicha, bunga sabab falastinliklar asosan mana shu shahridan turib, yahudiylarga hujum qilmoqdalar. Shuningdek, Isroil hukumati Janin va Iyerixon shahriga qo'shimcha askarlarni olib kirdi, Quddus markazida yangi Blok-postlar barpo etilib, nazorat kuchaytirilmoqda.

Falastinliklar esa Isroil tomoning bu harakatini arab yerlarining haqiqiy qamoqxonaga aylantirish, deb aytmoqda.

SERBIYA JANUBIDAGI XABAR

Mana, 1 necha haftadan beri Serbiya janubida, ya'ni Kosovo o'lkasining Makedoniyaya bilan chegara hududidagi vaziyat keskin bo'lib turibdi. Bu yerlarda alban jangarilari serblar va Mak-ya qo'shinlari bilan jang qilmoqdalar. Serbiya janubida maxsus bufer zona ham tashkil etilmagan. Bu zonani NATO qo'shinlari qo'riqlashmoqda. Shuningdek, NATO qo'shinlari tinchlikni saqlash maqsadida Yugoslaviyaning boshqa hududlari, hamda Makedoniya chegaralariga ham olib kirilgan.

13 mart kuni NATO vakillarining Kosovo va Makedoniyadagi alban jangarilari bilan bog'liq muammoni hal qilish bo'yicha navbatdagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

Alban jangarilari Kosovo va Makedoniya hukumatini, shuningdek, jahon hamjamiyatini qattiq tashvishga solmoqda.

Kosovoning bir qancha rayonlarini egallab olgan alban jangarilarining komandirlari Serbiya hukumati bilan murosaga kelishni va janglarni to'xtatishni xohlamayapti.

Makedoniya aholisining uchdan 1 qismini alban millatiga mansub bo'lgan kishilar tashkil etadi. Bu holat esa Makedoniyada ham vaziyat xuddi Serbiya janglaridek keskinligidan dalolat beradi.

SHohrux KARIMBEKOV tayyorladi.

MAKTABDA — NAVRO'Z

Quyidagi gul payrovlarini esa Abdullo Hamidullayev va Dilshod Akromovlar



bir-biriga gal bermay aytishdi. Askiyabozlikni esa Rixsivoy Otaxo'jayev va Nozim Hakimovlar rosa qizitishdi.

— Gulmisiz, rayhonmisiz, jambilmisiz?

— Aytganingizman.

— Doim darsdan kech qolib, ko'cha supurganmisiz?

— Gulmisiz, rayhonmisiz, sumbulmisiz?

— Aytganingizman.

— Ruchkasi uyda qolib, yozmay o'tirgan o'quvchimisiz?

Kecha so'ngida maktab rahbari Ma'mura Yormuhamedova va boshlang'ich sinflar bo'yicha ilmiy mudira Halima Mashunpina so'zga chiqib, barchani Navro'z bilan qutlab, yaxshi tilaklar bildirishdi.

Nargiza ABDULLAYEVA

Ona dunyodagi eng buyuk zotdir. Agar mehri quyoshga tenglashtirsak, ona mehri quyoshdan ham yuksak va beo'ldir. Ona bolani dunyoga keltiradi, unga qalb beradi, qalbiga sevgi-muhabbatni joylaydi. Shuning uchun bizlarning tilimiz «Ona» so'zi bilan biyron bo'lgan. Sevimli Prezidentimiz - Islom Karimovning farmonlari bilan 2001 yil «Onalar va bolalar» yili deb e'lon qilingan. Buning olam-olam ma'nosi bor. Chunki onalarni bolalarsiz, bolalarni onalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Men onajonimni juda yaxshi ko'raman. U kishi haqida qancha maqto'v gaplarni aytam ham kamlik qiladi. Men onamni hech ikkilanmay «uyimizning quyoshi» deb atayman. Onamning ismlari Klaraxon, familiyalari esa Rahmetova. Onam Toshkent Davlat Madaniyat institutini tamomlab, O'zbekiston Davlat kitob palatasida ishlaganlar. Men tug'ilib, bog'cha yoshiga yetganimdan so'ng «Kamalak» nashriyotida faoliyat ko'rsatganlar. Hozir esa uy bekasilar. Onamni dunyodagi onalarning eng chiroylisi deb bilaman. Boshqa bolalar ham o'z onalarini xuddi shunday tasavvur qilishsa kerak.

Onamning fazilatlarini haqida aytadigan bo'lsam, onajonim o'qimishli, mening har bir injiqlik bilan beradigan savollarimga erinmasdan, dalillar bilan javob beradilar. Uy ishlari qancha ko'p bo'lmasin, men uchun albatta vaqt topadilar. Yana bir fazilatlarini — mehmon kutishni, dasturxon tuzatishni judayam yaxshi ko'radilar, otamning iboralari bilan aytganda «qo'li shirin» pazandalar. Onajonim pishirgan turli xildagi shirinshakar pishiriqlar dasturxonimiz ko'rki hisoblanadi.

Barcha fanlardan a'lo baholarda o'qishimda ham onajonimning hissalari katta. Shuning uchun men ham o'z navbatida onamning uy yumushlariga qarashib, hamma aytganlarini bajarishga harakat qilaman.

ONALAR QO'SHIG'I

Bo'sh paytlarimda «Boshqotirmalar» tuzishni yaxshi ko'raman. Buni menga dadam o'rgatganlar. Men tuzgan «Boshqotirma»lar turli gazetalarda chop etilgan. Hatto «Darakchi» gazetasi uyushtirgan tanlovda sovrindor ham bo'lganman.

Bir kuni tuzayotgan boshqotirmamda «Alla» so'ziga savol tuzolmay, onajonimdan yordam so'radim. «Onalar qo'shig'i» deb yozgin, dedilar onam boshimni silab... Yana bir kun buvimlarnikiga borganimizda kelinoyim bolalariga alla aytayotganlarini eshitib qoldim va onajonimdan so'radim:

— Oyijon, nega chaqaloqlarga alla aytishadi? Chaqaloqligimda siz ham menga alla aytganmisiz?

Bu savolimga oyim ham, buvijonim ham baravariga kulishdi.

— Chaqaloqligingda hech uxlatolmasdim, — dedilar onam. — Shunda buvijoning «alla aytasang, bolang injiqlik qilmay, tinch uxlaydi», deganlar va menga alla aytishni o'rgatganlar.

— Alla aytmasangiz uxlamasdim?

— Uxlamasding-da.

— Nega uxlamasdim?

— Negaki ona allasi shunday senrli kuchga ega ekanki, unda

onaning mehri-muhabbati qorishib ketgan. Ona oq sut berib, bolasining qornini to'yg'azsa, alla aytib, uning quloqlari orqali yuragiga Vatan mehri soladi. Ona allasida ishq-muhabbat, yaxshilik, tug'ilib o'sgan yurtiga

sadoqat, ota-onaga, xalqiga bo'lgan hurmat, qo'ying-chi, barcha yaxshi fazilatlar mujassam. Shuning uchun allani Onalar qo'shig'i deb atashadi.

— Alla eshitib katta bo'lgan bola ota-onasiga, Vataniga mehrlil bo'lib o'sadi. Unday bolaning qo'ldan yomonlik emas, faqat yaxshilik keladi, bolajonim, — dedilar buvim ham qo'llarini duoga ochib. — Hamma kishilarning uyida faqat alla yangrasin!

NEGA MENI

«TOYCHOG'IM» DEYSIZ?

Onajonim meni har-xil shirin so'zlar bilan erkalaydilar. Ayniqsa, maktabga ketayotganimda «toychog'im, yo'ldan ehtiyot bo'lib o't, men derazadan qarab turaman», maktabdan kelganimda «toychog'im, yaxshi o'qib keldingmi? Bugun qaysi fanlardan qanaqa baho olding?» deb so'rashni kanda qilmaydilar. Bir kuni onajonimdan so'radim:

— Oyijon, nega siz meni har doim «toychog'im» deyaverasiz? Axir toychog degani otning bolasi-ku.

Bu gapga onam kuldilar.

— Buni qachon bila qolding, toychog'im?

— Ana, yana «toychog'im» deyapsiz.

— Toychog'im demay, nima dey? — dedilar onam meni yonlariga o'tqazib.

— To'g'ri, otning bolasini toychog, tuyaning bolasini bo'taloq deb atashadi. Lekin odamlar ham o'z bolalarini

«toychog'im, bo'talog'im» deya erkalaydi. Buning ma'nosi shundaki, inson tabiatning, borliqning bir bo'lagi. U tabiatning gultoji bo'lsa-da, o'zi yashayotgan borliqni, yonatrofdagi o'simliklar dunyosi, jonivor va boshqa narsalarni ham sevadi, ularga befarq qaramaydi. Inson va tabiat, inson va

jonivorlar bir-biriga chambarchas bog'liq. Nega endi inson o'z bolasini ularning nomi bilan erkalashiga kelsak, bu bilan onalar bolalarining qalbida tabiatga, jonivorlarga nisbatan mehr uyg'otib, mavjudotlarga

o'qibatli bo'lishni, ularni asrashni o'rgatadi. Yana bir tomoni, har bir yilga hayvonlarning nomi berilgan. Buni muchal deyishadi. Mana, sen «ot» yilida tug'ilganing uchun, seni «toychog'im» deb erkalayman-da, toychog'im.

Ana, men sizga aytadimmi, onajonim mening har savolimga to'g'ri va aniq qilib javob beradilar. Men esa u kishining gaplarini tinglab, bilmagan narsalarimni bilib olaman. Hozir ham meni toychog'im deb chaqiradilar, men esa «labbay, oyijon» degancha, buyurgan ishlarini darrov bajarishga harakat qilaman. Aziz tengdoshim! Sizning onajoningiz sizni nima deb erkalaydi?

HIKOYAT

Onalarning baxti bolalar bilan ekanligi sir emas. Onalar o'z bolasi uchun jonini ham berishga hamisha tayyor turadigan zot. «Qo'ng'iz ham o'z bolasini oppog'im,

tipratikan esa yumsog'im degan» matal bekorga to'qilmagan. Onaning bolaga bo'lgan mehri haqidagi hikoyatni «Hikmatlar xazinasi» kitobidan o'qib olgandim. Men onajonim haqida yozayotib, shu hikoyat esimga

tushdi. Aziz tengdoshim, siz ham shu hikoyatni bir tinglab ko'ring-a!

«Bu hikoyatdagi voqea qachon bo'lib o'tganligini biz bobolarimizdan, bobolarimiz esa bobolaridan eshitgan ekanlar, — deb boshlanadi hikoyat. — Madrasa hujralaridan birida o'n chog'li bola saboq o'qirdi. Bir kuni shu bolalardan birining onasi madrasaga o'g'lining holidan xabar olgani kelganida, domla-muallim onaning qo'liga bir dona naqsh olmani berib:

— Shu olmani ana shu bolalar ichidagi chiroylisiga bersangiz, — debdi.

Ona olmani o'ylamay-netmay bir bolaga tutqazibdi.

— Men sizga olmani eng chiroyli bolaga bering degan edim-ku, — debdi domla onaga razm solib. — Siz bo'lsangiz, xunuk, bedavo bolaga tutqazib o'tiribsiz?! Nega bunday qildingiz?

Ona biroz tin olib, shunday debdi.

Ona haqida so'z

— Qo'ng'iz ham bolasini oppog'im degan ekan. Siz xunuk deb o'ylagan ana shu bola mening jigargo'sham bo'ladi. Har bir ona o'z farzandini olamdagi jamiyki bolalardan chiroyli deb biladi.

Bu dunyoda xunuk odam yo'q, faqat xunuk qalblar bo'lishi mumkin!..

Onaning bu javobidan domla-muallim mulzam bo'lib, ayoldan kechirim so'ragan ekan.

«Qissadan hissa» deyiladi ertaklarda. Hikoyatdan chiqadigan «hissa» shuki, bizning hur O'zbekistonimizdagi hamma bolalar chiroyli, onalarimizning mehri esa osmon qadar yuksakdir!

MA'NAVY ONAMIZ

Men Toshkent shahridagi 229-maktabda o'qiyman. Sinfimizdagi bolalarning hammasi bir-biri bilan ahilinoq. Go'yo bir oilaning farzandlarimiz. Bizga ilm sirlarini o'rgatayotgan muallim-ustozlarimizni judayam hurmat qilamiz. «Ustozingni onangday hurmat qilsang, ustozing seni bolasi day ardoqlaydi», degan o'g'itni onajonim har doim menga uqdiradilar. Bu gapning qanchalik rostligini har kuni ko'rib turibman. Ustozimiz Dilbar opa Narzullayeva bizga saboq berish bilan birga, o'z bolalariday bizlarni yaxshi ko'rib, yutuqlarimizdan xursand bo'ladi, kamchiliklarimizdan kuyunadilar.

— Sizlar mening bolalarimsizlar, — deyidilar har doim Dilbar opa, — Shunday ekan, bizlar ona-boladay bir-birimizga mehr-aridoqda bo'lishimiz darkor. Bo'lmasa, hech qanday natijaga erisha olmaymiz.

U kishining bu gaplari bizlarni yanada yaxshi o'qishga, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishga, uy vazifalarini muntazam tayyorlab borishga undaydi.

Dilbar opa bilimli, har bir bola bilan til topisha oladigan ustoz. Biror gunoh qilib qo'ysak, hech qachon urushmaydilar, lekin shunday bir ibratli nasihat qiladilarki, biz qilgan xatoimizni anglab yetamiz va uni takrorlamaslikka harakat qilamiz. O'ylaymanki, bir kun kelib, bizlar katta bo'lib, maktabni bitirib ketganimizda ham ustozimiz — ma'naviy onamiz Dilbar opaning bizga qilgan yaxshiliklarini eslab yuramiz.

Men onajonim haqida yana ko'p narsalarni yozmoqchi edim. Lekin u kishining sha'niga aytiladigan chiroyli so'zlarni topa olmadim. Kelgusida albatta, onam haqida, onalar haqida ko'proq

yozaman. Ota-onalarimiz biz bolalarni qanchalik sevsalar, biz ham ularni shunchalar yaxshi ko'ramiz. Bu so'zlarimga tengdoshlarim albatta qo'shilishadi. Men ota-onalarga shoir so'zi bilan shunday tilak bildirib qolaman:

**Onam yuzga kirsinlar,
Otam yuzga kirsinlar.
Bizlar yuzga kirganda,
Yonimizda yursinlar.**

Sherzod ZOYIROV,
Toshkentdagi 229-maktab
o'quvchisi.

UYIMIZNING QUYOSHI



Билангонларинг ужогу



ONAJON

Mehribonim o'zingiz,
Boldan shirin so'zingiz.
Havas bilan boqadi,
Mehr to'la ko'zingiz.
Go'daklikdan ardoqlab,
O'stiringiz siz bizni.
Asl o'g'lonlar bo'lib,
Xursand qilamiz sizni.

ABDUVORIS JIYANIM

To'polonchi, shirintoy,
Vorisi — ukam bo'ladi.
Bugun tug'ilgan kuni,
U besh yoshga to'ladi.
Yolg'iz o'g'ilman, deya,
Hech erkaliq qilmaydi.
Otasining dastoyori,
Tinim nima bilmaydi.
Faqat a'loga o'qir,
Bo'lganida u katta.
Onasining orzusini,
Ushaltirar albatta.

Davron ZUKUROV,
Toshkentdagi
29-maktabning
3-„G“ sinf o'quvchisi.



BOG'LARIM

Mening chaman bog'larim,
Har turli mevaga boy.
Ko'zlarimni yashnatib,
Kundan-kun ochar chiroy.
Bog'imga keling do'stlar,
Birga quvna o'ynaylik.
Bahoroydan zavqlanib,
Qo'shiq, alyor kuylaylik.
Olma, o'rik, uzumzor,
Qishlog'imga ko'rk berar.
Kuzda keling albatta,
Do'stlarim meva terar.

Gulhayo
RAHIMJONOVA,
Namangan viloyati,
Chortoq tumanidagi
Ogahiy nomli
13-maktabning
3-„A“ sinf o'quvchisi.

BAHOR KELDI

Qaldirg'och keldi yana,
Sog'inib o'lkamizni.
Bahor quyoshi yana,
Qizdirdi yelkamizni.
To'rt faslning ichida,
Eng go'zali bahordir.
Bog', dalani yashnatib,
Kirib kelgan nahordir.
Bahoroyning juda ham,
Hislati ko'p ekanda.
Juda tez unib chiqar,
Dehqon bug'doy ekkanda.
Daraxt guli pushti rang,
Osib qo'ygandek marjon.
Bahorning havosidan,
Orom olar tanda jon.

Nasiba NIYOZOVA,
Samarqand viloyati,
Qo'shrabot tumanidagi
22-tayanch maktabining
7-„A“ sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

BOSH MUHARRIR: Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,

Mukarrama

MURODOVA,

Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi

Gazeta «Ijod
dunyosi» nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 50100
nuxxada ofset usulida
bosildi.

Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.

Buyurtma — Г-2293


Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi: Feruza
ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzili 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.

БОШҚОТІРМА

КЕТМА-КЕТЛИКДА: 1. Билим манбаи. 2. Йил фасли. 3. Хушбўй гул. 4. Тепдим, томга чикдим. 5. Шеърийат султони. 6. Олача чопонли йиртқич ҳайвон. 7. Сабзавот экин. 8. Дин. 9. Фикрдош. 10. Сирти таёқ, ичи бўёқ. 11. Қуритилган узум. 12. Хушбўй зиравор. 13. Узун қон томири. 14. Йўғон ип. 15. Эстрада гуруҳи. 16. Дурадгорлик асбоби. 17. Баҳорги булут. 18. Гапиради битта, эшитида мингта. 19. Куёш ботганда сўнгги пайт. 20. Овқатга солинадиган мажмуи. 21. Ҳажвий радиожурнал. 22. Сўз кўрки. 23. Балиқ тури. 24. Қадимий улов. 25. Ёзнинг кенжатои ойи. 26. Ер ўлчов бирлиги. 27. Субтропик мева. 28. Ҳам туман, ҳам дарё, ҳам овқат. 29. Водийдаги шаҳар. 30. Ўсимликлар дунёси. 31. Бутун борлиқ.



Тузувчи: Шерзод ЗОЙИРОВ,
229-мактабнинг 5-синф ўқувчиси.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topog'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...

Maqsadimiz: bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezaydi.

ЎТГАН СОНДАГИ БОШҚОТІРМАНИНГ ЖАВОБИ

КЕТМА-КЕТЛИКДА: 1. Атиргул. 2. Лобар. 3. Раъно. 4. Олима. 5. Айём. 6. Март. 7. Тумарис. 8. «Саида». 9. Асал. 10. Лола. 11. Аёл. 12. Лаофат. 13. Тамарахоним. 14. Малак. 15. Комила. 16. Адиба. 17. Алла. 18. Амма. 19. Анди. 20. Ирода. 21. Атлас. 22. Сарафан. 23. Нодира. 24. Аёлманд. 25. Дур.

Бир бор экан...



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Bu voqea qish tugab qolgan kunlarning birida sodir bo'lgan ekan.

— G'imirlayverma, boshqalarning uyusiga halal berasan, — deb to'ng'illab qo'yibdi Qoqigul.

— Ha-da, hali juda erta-ku, — deb ovoz beribdi yer ostida mudrab yotgan Qo'ng'iroqgul.

— Yo'q, mening vaqtim bo'ldi. Ko'klam yaqinlashayotganini sezayapman, — xitob qilibdi Boychechak.

— Yer yuzi hali sovuq bo'lsa kerak, qor ham hali erimagandir. Halok bo'lishing mumkin, — uni yo'ldan qaytarmoqchi bo'libdi Binafsha.


— Buncha shoshilishning boisi nima, o'zingni xatarga qo'yib nima qilasan, — e'tiroz bildiribdi gullardan biri.

— Men Bahoroyga albatta seni kutib olgan chiqaman, deb va'da berganman, — deya tushuntiribdi Boychechak.

— Ha-ya, gap bu yoqda ekan-da. O'z va'dangdan tonolmayman. Lekin bilmadim, Bahoroy seni payqarmikan? — xo'rsinib qo'yibdi Binafsha.

— Sen meni juda kichkinasan, demoqchimisan? Hatto Bahoroy meni payqamasa ham, men uni kutib olishim shart.

Shu so'zlarni aytgan Boychechak



qattiq yerni qat'iyat bilan qazilab chiqa boshlabdi. Nihoyat to'siqlar tugab, Boychechak yer yuzasiga mo'ralabdi.

— YUqorida ahvol qalay? — pastdan Binafshaning ovozi eshitilibdi.

— Salqin, — debdi Boychechak. — Lekin ko'klam isini sezayapman.

— Faqat, iltimos, kunlar ilimaguncha ochilmay tur, — yalinib so'rabdi Binafsha.

— Yo'q, yo'q. Men Bahoroyini ko'zlarimni ochib kutib

olmoqchiman.

Hali uyqusi batamom tarqalmagan Bahoroy amalga kirsammi, yo'qmi deb hayron o'tirgan ekan.

Kampirsho-qish bo'lsa Bahoroyini bir oz sabr qilishga ko'ndirmoqchi bo'lib, uzoq yalinibdi va bir shart qo'yibdi: Agar tabiat hali uyg'onishga tayyor bo'lmasa,

Bahoroy amalga kirishmay turadi. Kampirsho-qishga sovuq va bo'ronlar yordamida bir oz ko'ngilxushlik qilishga imkon beradi. Ular shunga kelishibdilar.

Shunda Bahoroy diqqat bilan atrofni kuzatibdi. Qorlar erib, yer yuzi ochilib qolgan ekan. Oppoq gullar nozik boshchalarini shodon tebratib turishgan emish.

— Meni qarshilagani chiqdingizmi? — suyunibdi Bahoroy.

— Xo'sh, — ayyorona ko'z qisib so'rabdi Qish. — O'ringni menga berasanmi? Tabiat hali uyquda, uyg'onishni o'ylayotgani yo'q.

— Hecham-da, — chiroyli

KARIN KOYT

jilmayibdi Bahoroy. — Boychechaklar menga peshvoz chiqishdi.

— Voy-ey, qandaydir arziyas gulchalar-ku, — jerkib javob beribdi qish. — Unday deya ko'rma, — debdi jahl bilan Bahoroy. — Ulug' ishlar qilishga qodirlar hech qachon arziyas bo'lmaydi. Va'daga va'fo qilmoq ba'zan qanchalar qiyin bo'lishini bilasanmi? Ba'zida bu qahramonlikka o'xshaydi. Men ham o'z va'damda turaman. Endi hecham o'rnimni senga bermayman.

Shunday qilib, Bahoroy ishga kirishibdi.

— Yordamchilarim, qayerdasiz? — chaqiribdi u. — Hoy, iliq shamol, sen qora bulutlarni hayda. Siz, quyosh bobo, yerni qizdiring.

Yordamchilar ham tez orada ishga kirishibdi. Atrof yashil libos kiyibdi.

Bundan xursand bo'lgan Binafsha, Qo'ng'iroqgul va boshqa barcha gullar Boychechakka minnatdorchilik bildiribdi.

Ma'suda RASULOVA
tarjimasi.